

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**G‘ULOMOV DONIYORBЕК DILSHODJON O‘G‘LI**

**O‘ZBEK ROMANLARIDA SYUJETNING RETROSPEKTIV TIPI VA  
UNING BADIY-ESTETIK FUNKSIYASI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**G‘ulomov Doniyorbek Dilshodjon o‘g‘li**

О‘zbek romanlarida syujetning retrospektiv tipi va uning badiiy-estetik funksiyasi.....5

**Гуломов Дониёрбек Дилшоджон угли**

Ретроспективный тип сюжета в узбекских романах и его художественно-эстетическая функция.....25

**Gulomov Doniyorbek Dilshodjon ugli**

Retrospective type of plot in uzbek novels and its fictional-aesthetic function.....50

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**G‘ULOMOV DONIYORBЕК DILSHODJON O‘G‘LI**

**O‘ZBEK ROMANLARIDA SYUJETNING RETROSPEKTIV TIPI VA  
UNING BADIY-ESTETIK FUNKSIYASI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2431 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasining www.fdu.uz hamda "ZiyoNET" axborot-ta'lim portal www.ziyo.net.uz manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Raximov Zokirjon Azimovich**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponenlar:**

**Tojiboyeva Muqaddasxon Abdurahimovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yakubov Islomjon Axmedjanovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 26 07 soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inomiy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-57-82; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

858 Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "6 07" kuni tarqatildi.

(2024-yil "6 07" dagi 16 raqamli reestr bayonnomasi).



**S.M.Muminov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

**M.T.Zokirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filologiya fanlari nomzodi,  
professor

**Z.B.Qobilova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida retrospeksiya – asar voqea-hodisalarini harakatga keltiruvchi, obrazlarni tavsiflovchi, uning xatti-harakati, xarakteri hamda muallifning dunyoqarashi, olamni qay darajada idrok qilishini aks ettiruvchi syujet qurilishining yangi usuli sifatida talqin qilinmoqda. Darhaqiqat, asar strukturasi, syujetini uyushtiruvchi, badiiy voqelikning tugal yaxlitlikda qabul qilinishini ta’minlovchi retrospeksiyaning ijodiy ravishda teran o’zlashtirilishi asarning estetik tabiatini tushunishda o’ziga xos yondashuvni taqozo etadi. Zero, retrospeksiya syujet qurilishida muhim o’rinni egallab, badiiy asarning barcha unsurlarini qamrab olishini o’zbek romanlari tadqiqi vositasida ko’rsatib berish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligining keyingi taraqqiyotida retrospeksiya borliqni aks ettirishning poetik vositalaridan biri hamda yozuvchining ijodiy niyati va asarning g’oyaviy konsepsiyasidan kelib chiqib, syujetni yuzaga chiqarishda, kompozitsion qurilishida, real hayotiy voqelik manzarasini in’ikos etishda asos bo’lgan adabiy hodisa sifatida baholangan. Retrospeksiya asarning tasvir obyekt va subyekt sifatida muallif yaratgan adabiy olam manzarasini yaxlit idrok qilish imkoniyatini ta’minlaydi. Shuning uchun ham tarixiy romanlarda badiiy epiklashgan tarixiy dalillar, voqealar, buyuk shaxslar hayoti – murakkab umr yo’llari uzoq yoxud yaqin o’tmish xronologiyasida moziyning muhim parchasini retrospeksiya asosida ifodalash, muayyan davr ijodkorlari yoki alohida yozuvchi ijodi misolida individuallik va qiyosiy-tipologik umumlashmada tahlil qilish adabiyotshunoslik sohasida o’rganilishi zarur bo’lgan ilmiy-nazariy masalalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda so’nggi yillarda kitobxonlikka katta e’tibor qaratilmoqda. Bunda badiiy asar qimmat va ijodkor shaxsiga bo’lgan munosabat adabiy jarayonning asosiy masalalaridan biriga aylandi. Aslini olganda, badiiy asarning syujet va kompozitsiyasi badiiylik va obrazlar silsilasini namoyon qiladigan asosiy komponentdir. Shu ma’noda, davr muammolari, insoniy taqdirlar manzarasi yozuvchi dunyoqarashini boyitib, hayot mazmunini qalban his etishga chorlaydi. Zero, “Bugungi kunda O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Biz milliy tiklanishdan – milliy yuksalishga erishishni o‘z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo‘ydik. Bu ulug‘ maqsadga esa jahon ahli bilan hamjihat va hamkor bo‘lib yashash, ochiq demokratik jamiyat qurish, hayotimizda milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini yanada keng qaror toptirish orqaligina erishish mumkinligini biz yaxshi anglaymiz. Ayni shu nuqtayi nazardan qaraganda, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, ko‘p qirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o‘ylaymanki, katta ahamiyatga ega”<sup>1</sup> ekan, adabiyotshunosligimizda ham bunga javoban katta sifat o‘zgarishlari kuzatilmoqda. Shu bois, zamonaviy

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. “Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига мурожаатномаси. – 2018 йил, 7 август // Qarang: Мирзиёев Ш. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, хаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б.339.

romanchiligimizdagi obrazlarning izchilligi, xarakter va ruhiyat mutanosibliigi va badiiy qahramon qiyofasining tahlili masalasiga e'tibor qaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon adabiyotshunosligida retrospektiv syujetning ilmiy-nazariy muammolari yevropa olimlari (H.Meyergof, A.James, W.Heffernan, A.Rodriguez, M.Vukanovichand, L.Grmusha, N.Bemong, P.Borghart, J.Culler, M.Akins)<sup>2</sup>, rus (M.Baxtin, N.Gey, D.Lixachev, B.Meylax, E.Meletinskiy, Z.Turayeva, V.Xalizev, N.Shutaya, L.N.Fedorova, N.V.Bruskova, M.G.Merkulova, I.V.Tivyayeva, M.Petrova, M.Ponomaryova)<sup>3</sup> va o'zbek

---

<sup>2</sup> Meyerhof H. Time in Literature. University of California Press, Berkeley-Los Angeles, 1960; James A., Heffernan W. Space and time in literature and the visual arts. Soundings: An Interdisciplinary Journal, Vol. 70, No. 1/2, 1987. – P.124; Rodrigues A. and etc. Studies on Time: Time in Literature. Institute of Advanced Studies of the University of SãoPaulo, Berkley, Los Angeles: Un-ty of California Press, 1991; Vukanovićand M., Grmuša L. Space and Time in Language and Literature. – London: Cambridge Scholars Publishing, 2009; Bemong N., Borghart P. and etc. Bakhtin's theory of the literary chronotope: reflections, applications, perspectives. – Belgium: Gent, Academia Press, 2010; Culler J. Literary theory. – New York: Oxford University Press Inc, 2011; Akins M. Time and Space Reconsidered the Literary Landscape of Murakami Haruki. PhD Thesis. SOAS, University of London, 2012.

<sup>3</sup> Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Худож. лит., 1975; Бахтин М.М. Проблемы творчества: поэтики Достоевского. Работы 1960-х–1970-х гг. – М.: Наука, 2002; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Сов. писатель, 1986; Бахтин М.М. Эпос и роман. // Вопр. лит. 1970. –№1; Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе. Очерки по исторической поэтике // Вопросы литературы и эстетики. – М.: Худож. лит., 1975. – С.234-407; Бахтин М.М. Автор и герой в эстетической деятельности // Автор и герой: К философским основам гуманитарных наук. – СПб.: Азбука, 2000. – С.9-226; Гей Н.К. Искусство слово. – М.: Наука, 1967; Лихачёв Д.С. Поэтика древнерусской литературы. – М.: Худож.лит., 1979; Лихачёв Д.С. История поэтики русской литературы. Смех как мировоззрение и другие работе. – СПб.: Наука, 1994; Мейлах Б.С. Проблемы ритма, пространства и времени в комплексном изучении творчества //Ритм, пространство и время в литературе и искусстве. – Л.: Наука, 1974; Мелетинский Е.М. Введение в историческую поэтику эпоса и романа. – М.: Наука, 1986; Тураева З. Категории времени. Время грамматическое и время художественное (на материале английского языка). – М.: Высшая школа, 1979; Хализев В.Е. Время и пространство. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2002; Шутая Н. Типология

(N.Shodiyev, A.Rahimov, I.Yakubov, Z.Rahimov, B.To‘rayeva)<sup>4</sup> olimlarining tadqiqotlarida yoritilgan. Jumladan, L.N.Fedorova “Badiiy matnda retrospektiv kategoriya” (ingliz tili materiali asosida), N.V.Bruskova “Badiiy matnda retrospektiv kategoriya” (nemis tili materiali asosida) tadqiqotlarida retrospeksiya, retrospektiv unsurlar nazariy-tahliliy jihatdan o‘rganilgan. Shuningdek, M.G.Merkulova “Ingliz “Yangi dramasida” retrospeksiya: tipologiya va funksiyalar”, I.V.Tivyayeva “Retrospektiv hikoyaning badiiy nutqda strukturaviy-semantik va grammatik xususiyatlari”, M.A.Petrova “S.A.Yesenin she‘riyatida retrospeksiya lirik syujet qurish usuli sifatida” nomli dissertatsion ishlarida retrospeksiyaning ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq etganlar.

O‘zbek adabiyotshunosligida A.Rahimov “O‘zbek romani poetikasi” (syujet va konflikt), I.Yakubov “Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi”, Z.Rahimov “Ko‘hna dunyo” romani poetikasi”, B.To‘rayeva “Tarixiy romanlarda badiiy zamon muammosi” mavzularida bajargan ilmiy izlanishlarida retrospeksiya va uning ko‘rinishlari o‘zbek romanlari misolida tadqiqotlar olib borilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida olib borilgan ilmiy ishlarda retrospeksiya va uning nazariy-metodologik asos-mohiyati, klassik shakllari, tiplari hamda usullaridan iborat murakkab tizimi yangicha qarashlar asosida maxsus o‘rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlar rejasining “Poetika muammolari” mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o‘zbek romanlarida syujetning retrospektiv tipi, uning o‘ziga xos xususiyatlari va badiiy-estetik funksiyasini ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berishdan iboratdir.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

badiiy asarda syujet qurilishining retrospektiv tipi haqida nazariy xulosalar berish, uning badiiy-estetik funksiyasini ko‘rsatish;

retrospektiv syujet muammosini nazariy jihatdan o‘rganish, uning shakllari, elementlari va usullaridan iborat yaxlit tizimini kompleks tadqiq etish hamda retrospektiv syujet elementlarini asar poetikasidagi adabiy-estetik ahamiyatini belgilash;

---

художественного времени и пространства в русском романе XVIII - XIX вв.: Дис... док-ра. филол. наук. – М., 2007; Федорова Л.Н. Категория ретроспекции в художественном тексте (на материале английского языка): Дисс... канд. филол. наук. – М., 1982; Брускова Н.В. Категории ретроспекции и проспекции в художественном тексте (на материале немецкого языка): Дисс... канд. филол. наук. – М., 1983; Меркулова М.Г. Ретроспекция в английской “новой драме” конца XIX – начала XX века: истоки и функционирование. – М.: Прометей, 2006. – С.30-31; <https://cyberleninka.ru/article/n/retrospektivnoe-povestvovanie-v-hudozhestvennom-diskurse/viewer>; <http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/20425/1/dc2-2011-48.pdf>; <https://cyberleninka.ru/article/n/retrospeksiya-kak-sposob-postroeniya-liricheskogo-syuzheta-v-poezii-s-a-esenina-motiv-vospominaniy/viewer>.

<sup>4</sup> Шодиев Н. Идеино-художественные своеобразия крупных эпических форм литератур Средней Азии и Казахстана: Дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 1986; Рахимов А. Ўзбек романи поэтикаси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1993; Якубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1998; Рахимов З. “Кўҳна дунё” романи поэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Фарғона, 2005; Тўраева Б.Тарихий романларда бадий зamon муаммоси: Филол. фан. бўйича фал. д-ри (PhD)... дисс. – Тошкент, 2018.

O.Yoqubovning “Ko‘hna dunyo”, “Ulug‘bek xazinasi”, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlarida retrospeksiya, retrospektiv qurilish, retrospektiv unsurlar va shakllarni o‘rganish hamda janrning qahramon ruhiyati, xarakterini ochishdagi o‘rnini yoritish;

Xurshid Do‘stmuhammad, Ulug‘bek Hamdam va Isajon Sulton ijodiga xos bo‘lgan retrospektiv o‘ziga xosliklarni aniqlash, vazifalarini belgilash va ko‘rsatib berish;

tarixiy va zamonaviy roman arxitektonikasi, syujet hududi, qahramon va personajlar tizimi, romanning badiiy-falsafiy konsepsiyasi, badiiy matn poetikasining retrospektiv syujet bilan aloqadorligi hamda badiiy-funksional xususiyatlarini tadqiq etish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida syujetning retrospektiv tipi aks etgan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” va “Ko‘hna dunyo”, Xurshid Do‘stmuhammadning “Bozor”, Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat”, Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” va “Ozod” romanlari olingan.

**Tadqiqot predmetini** tarixiy va zamonaviy romanlarda syujet qurilishining retrospektiv usuli, uning ko‘rinishlari va xususiyatlarini ilmiy-nazariy yoritish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, struktural tahlil usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

retrospeksiyaning badiiy asar qurilishidagi yangi syujet usuli sifatidagi nazariy-konseptual maqomi, uning hikoyat, xotira, havola, epigraf, retrospektiv chekinish, biografik, rivoyat, dialog, esdalik, tush kabi klassik shakllari o‘zbek romanlari asosida dalillangan;

retrospeksiyaning retrospektiv rivoya kim tomonidan amalga oshirilishiga ko‘ra, retrospektiv rivoya qanday shaklda berilishiga ko‘ra, retrospektiv rivoyada voqealar sodir bo‘lish paytiga ko‘ra turlari, retrospektiv rivoyat, retrospektiv hikoya, retrospektiv xotira, retrospektiv esdalik, retrospektiv tush (bashorat) kabi kategoriyalari va qahramon taqdirining ibtidosiga qaytish, qaytadan chekinish kabi usullaridan iborat yaxlit tizim ekanligi ilmiy isbotlangan;

tarixiy va zamonaviy romanlarda retrospektiv syujetning mualliflar ijodiy niyati va g‘oyaviy-estetik konsepsiyalaridan kelib chiquvchi individual o‘ziga xos hikoyachi-personaj, hikoyachi-muallif retrospeksiya, biografik qaytish, retrospektiv dialog, murakkab retrospeksiya shakllari aniqlangan;

tarixiy va zamonaviy romanlarda syujetning retrospektiv esdaliklar, retrospektiv peyzaj, assotsiativ retrospeksiya, muallif retrospeksiya, sodda va murakkab retrospeksiya tiplari, kategoriyalari va usullari mundarijasiga asoslangan yaxlit xronos “atlas”i ijodiy-individuallik hamda qiyosiy-tipologik umumlashmalar sintezi orqali xulosalangan.

**Dissertatsiyaning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

retrospeksiya asardagi qahramon va personajlarining fojia va kechinmalari hayotiy ifodasini, voqelikning ta’sirchan talqinini, kitobxonning syujetning ahamiyatsiz tafsilotlariga ham e’tiborini oshirishga xizmat qilishi asoslangan;



retrospeksiyaning shakllari: nutq aspektlari, voqealarning qo‘llanishiga, syujet dinamikasi, qahramon holati, xatti-harakatini izohlash zaruratiga bog‘liqligi tahlil qilingan;

romanda muallifning “biografik retrospeksiya” dan foydalanishiga qahramonlar o‘tmishi, uning xarakter va qiyofasiga oid ochilmagan jihatlarni yoritishga, retrospektiv hikoya, retrospektiv xotira, retrospektiv esdalik, retrospektiv tush (bashorat) shakllaridan foydalanish esa asarda davr ziddiyatlaridagi taranglikni, qahramon ruhiyatidagi murakkab holatlar talqinini yuzaga keltirishi yoritilgan;

retrospektiv rivoyat shakli hodisa va g‘oyalar ta’sirchanligini oshirishga, hayotiy muammo va dramatismni kuchaytirishga, murakkab retrospeksiya qahramonlar o‘tmishi davriy pog‘onalarini aniq tasvirlashga, retrospeksiyaning hikoya, rivoyat va hikmat orqali qo‘llanilishi esa yagona mazmun ifodasiga xizmat qilishi ko‘rsatib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** yondashuv va qo‘llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga muvofiqligi, nazariy ma’lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlangan badiiy manbalarning tadqiqot predmetiga mosligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, tahlil va talqin qilinganligi, natijalarning vakolatli tizimlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiyadan chiqarilgan xulosalar o‘zbek adabiyotshunosligida dolzarb bo‘lgan syujet nazariyasiga oid mavjud ma’lumotlarni kengaytiradi, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish amaliyotida keng foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot natijasida olingan ilmiy-nazariy xulosalar ta’lim samaradorligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, dissertatsiyada bayon qilingan g‘oyaviy-estetik ta’sirchanlik va badiiy mahorat, uslub muammolari haqidagi nazariy xulosalar oliy o‘quv yurtlarining filologiya yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan “Adabiyotshunoslikka kirish”, “Adabiyot nazariyasi”, “Nazariy poetika”, “Yangi o‘zbek adabiyoti” fanlari bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishga, ma’ruza mashg‘ulotlari, maxsus kurs, seminarlar tashkil etishga hamda ixtisoslik fanlarining nazariy bazasini shakllantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tarixiy va zamonaviy romanlarda retrospektiv syujet muammosini tadqiq etish hamda ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish bo‘yicha olingan ilmiy natijalardan:

retrospeksiyaning badiiy asar qurilishidagi yangi syujet usuli sifatidagi nazariy-konseptual maqomi, uning retrospektiv rivoyat, retrospektiv hikoya, retrospektiv xotira, retrospektiv esdalik, retrospektiv tush kabi klassik shakllari o‘zbek romanlari asosida dalillanishiga doir tahlillardan OT-F-1-100-raqamli “Imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy faoliyatining badiiy ijodiyot vositalari asosida nazariy va amaliy takomillashuvi” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Farg‘ona davlat universitetining 2023-yil 22-sentabrdagi 01-4574-son ma’lumotnomasi). Natijada imkoniyati cheklangan bolalar maxsus maktablarida o‘quvchilarning ijodkorligini oshirish, darsdan tashqari

mashg'ulotlarni tashkil qilish va ularning g'oyaviy-estetik rivojlanishiga ko'maklashishga erishilgan;

tarixiy va zamonaviy romanlarda retrospektiv syujetning mualliflar ijodiy niyati va g'oyaviy-estetik konsepsiyalaridan kelib chiquvchi o'ziga xos hikoyachi-personaj, hikoyachi-muallif retrospeksiya, biografik qaytish, retrospektiv dialog, murakkab retrospeksiya shakllariga oid xulosalardan 2022-yil 20-iyundan 20-dekabrgacha amalga oshirilgan "Do'stlik – osoyishtalik garovi" mavzusidagi 1-raqamli davlat granti loyihasini bajarishda foydalanilgan (Respublika Tojik milliy-madaniy Markazi Farg'ona viloyati bo'linmasining 2023-yil 25-oktabrdagi 49-son ma'lumotnomasi);

retrospeksiyaning retrospektiv rivoya kim tomonidan amalga oshirilishiga ko'ra, retrospektiv rivoya qanday shaklda berilishiga ko'ra, retrospektiv rivoyada voqealar sodir bo'lish paytiga ko'ra turlari, retrospektiv rivoyat, retrospektiv hikoya, retrospektiv xotira, retrospektiv esdalik, retrospektiv tush (bashorat) kabi kategoriyalari va qahramon taqdirining ibtidosiga qaytish, qaytadan chekinish kabi ko'rinishlaridan iborat yaxlit tizim ekanligiga oid xulosalardan "Jadid adabiyoti tarixi" darsligidagi nazariy masalalarni yoritishda foydalanilgan (Farg'ona davlat universitetining 2023-yil 22-sentabrdagi 01-4573-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu dissertatsiya xulosalari darslik materiallarini ilmiy-nazariy jihatdan boyishiga xizmat qilgan;

tadqiqotdagi ilmiy qarashlar va xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradiokanalida 2021-2022-yillarda efirga uzatilgan "Bedorlik", "Ijod zavqi", "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" eshittirishlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 15-fevraldagi 04-36-246-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu teleko'rsatuv va eshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashib, ilmiy dalillar bilan boyidi, ko'rsatuvlarning sifati oshdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot ishi natijalari jami 9 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro va 5 ta respublika anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazildi.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy maqola nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari uchun asosiy ilmiy natijalarini chop etish taviya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 134 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Retrospektiv syujet genezisi, tadrijiy taraqqiyoti”** deb nomlangan. Mazkur bob **“Ilmiy-nazariy asoslar”** va **“Retrospektiv syujet elementlari va xususiyatlari”** nomli ikki fasldan tarkib topgan. Unda retrospektiv syujet genezisi va taraqqiyoti, konsepsiyasi asosida romanning poetik strukturasi tashkillanishi, muallifning badiiy mukammallikni namoyon etishdagi mahorati ko‘rsatib berilgan.

Badiiy ijodda syujet masalasi azaldan olimlar e‘tiborini o‘ziga tortib kelmoqda. Bu masala haqida Aristotel, G.Lessing, N.Bualo, D.Didro, F.Stendal, O.Balzak, V.Belinskiy, V.Chernishevskiy, N.Dobrolyubovlar dastlabki ilmiy qarashlarni bayon etgan bo‘lsalar, keyinchalik ushbu masala F.Shiller<sup>5</sup>, G.Polti<sup>6</sup>, T.Igleaton<sup>7</sup>, L.Timofeyev, M.Baxtin, A.Veselovskiy<sup>8</sup>, Y.Dobin<sup>9</sup>, I.Sulton, M.Qo‘shjonov, A.Rahimov, T.Boboyev, H.Umurov, D.To‘rayev, D.Quronov va boshqa xorijiy, rus va o‘zbek olimlari tomonidan tadqiq etilgan.

Syujetni tiplarga ajratish masalasida mavjud ilmiy adabiyotlarda, darslik va qo‘llanmalarda turli-tuman, ba‘zan bir-biriga zid ma‘lumotlar berilgan. Xususan, rus olimi V.Xalizev **“Syujetdagi voqealarning o‘zaro bog‘lanishiga ko‘ra ikki xil shakli mavjud. Birinchisi, syujet voqealari bog‘lanishida vaqt munosabati ustunlik qiladigan xronikali syujet, ikkinchisi esa syujet voqealari bog‘lanishida sabab-oqibat munosabati ustunlik qiladigan konsentrik syujet”**<sup>10</sup>, – deb izohlaydi.

Rus adabiyotshunosi G.Pospelov fikricha, **“syujet asosini tashkil etadigan voqealar bir-biri bilan turli shaklda bog‘lanadi. Ba‘zi hollarda ular o‘zaro vaqt munosabatiga ko‘ra, boshqa holatlarda sabab-oqibat munosabatida bog‘lanadi. Demak, “vaqt munosabatiga ko‘ra o‘zaro bog‘lanadigan syujet (B voqea A voqeadan keyin keladi) – xronikali syujet, sabab-oqibat munosabatiga ko‘ra o‘zaro bog‘lanadigan syujet (B voqea A voqea natijasida sodir bo‘ladi. Masalan, “Qiroli o‘ldi, qayg‘uga chiday olmay malika ham o‘ldi”) esa konsentrik syujet deyiladi”**<sup>11</sup>.

O‘zbek adabiyotshunosligida syujetning tiplarga ajratilish muammosi chuqur tadqiq etilgan bo‘lishiga qaramasdan, adabiyotshunoslarning syujet haqidagi nazariy qarashlarida ham o‘zaro tafovutlar uchraydi. Xususan, professor D.Quronov o‘z

<sup>5</sup> Венгерова С. Собрание сочинений Шиллера. – СПб.: Брокгауз-Ефрон, 1902. – С.559.

<sup>6</sup> Polti Gerges. Les 36 situations dramatiques. – Paris: James Knapp Reeve, 1894. – P.182.

<sup>7</sup> Терри Иглтон. Теория литературы. – М.: Издательский дом “Территория будущего”, 2010.

<sup>8</sup> Веселовский А.Н. Историческая поэтика. Часть 2, Поэтика сюжетов (1897-1906). – М.: Высшая школа, 1989. – С.493-597.

<sup>9</sup> Добин Е. Сюжет и действительность. – Л.: Сов. писатель, 1981.

<sup>10</sup> Хализев В. Драма как явление искусства. – М.: Искусство, 1979. – С.88.

<sup>11</sup> Пospelов Г. Введение в литературоведение. – М.: Высшая школа, 1983. – С.120.

qarashlarida syujet voqealarining o‘zaro munosabatiga ko‘ra ikki turga: “xronikali va konsentrik syujet”<sup>12</sup>ga ajratadi.

Adabiyotshunos olim A.Rahimov “O‘zbek romani poetikasi (syujet va konflikt)” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida syujetning to‘rt xil: “xronikali, konsentrik, retrospektiv va assotsiativ shakllari”<sup>13</sup> mavjud ekanligini ko‘rsatib o‘tadi.

Adabiyotshunos H.Umurov va T.Boboyev<sup>14</sup>lar ham syujetni yuqoridagi to‘rt turga ajratadi. Bunda adabiyotshunos A.Rahimov qarashlari asos qilib olinadi.

Demak, yuqoridagi asosli qilingan tasniflarga tayangan holda o‘zbek adabiyotshunosligida syujetning to‘rt tipi farqlanadi: a) xronikali syujet; b) konsentrik syujet; c) retrospektiv syujet; d) assotsiativ syujet.

Ma’lumki, syujetning barcha tiplari badiiy asar tarkibida sof holda uchramaydi, balki qorishiq tarzda bir-birini to‘ldirib, mustahkamlab keladi. Shu o‘rinda syujet tiplarining bunday sintetik shaklda uchrashi tabiiy holda syujetning alohida “sintetik tipi”<sup>15</sup>ni ajratib ko‘rsatish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Lekin syujetning alohida sintetik tipini ajratishga zarurat yo‘q. Sababi hozirgi adabiy asarlarda syujet qurilishi qanchalik qorishiq, sintetik bo‘lmasin konkret asarda syujet qurishning u yoki bu tipi yetakchilik qiladi. Syujetni tiplarga ajratishda esa konkret badiiy asarda qaysi bir syujet tipining yetakchi holda kelishi inobatga olinishi kerak. Chunki badiiy tasvir hamda rivoyada intellektuallik, psixologik tahlil hamda analitik tasvir borgan sari kuchayib borayotgan adabiyot taraqqiyotining hozirgi bosqichida, yuqoridagi syujet tiplaridan birini ikkinchisidan ajralgan holda tasavvur qilish aslo mumkin emas. Umuman olganda, badiiy asarni syujetning sof holda qaysi turiga mos ekanligini tahlil qilishda chuqurlashib ketish ham yaramaydi, bu masalani juda ham jo‘nlashtirib yuboradi. Xulosa qilib aytganda, u yoki bu asarda syujetning qaysi bir tipi yetakchilik qilmasin, boshqa syujet tiplari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari kuzatilad.

Bobning ikkinchi fasli “**Retrospektiv syujet elementlari va xususiyatlari**” deb nomlangan. Syujetning retrospektiv tipi borasida adabiyotshunoslarning nazariy qarashlari va ayrim darsliklarda bir-biriga zid fikrlarning uchrashi va bu mavzu doirasida yaxlit fikrning mavjud emasligi mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi. Jumladan, syujetning bunday shaklda qurilishini rus adabiyotshunosi M.Petrova “Retrospeksiya odamning o‘tmishga murojaat qilish, o‘tmish voqealarini o‘rganish, ma’lum vaqt oralig‘ida ularning ruhiy moslashuvi matnning badiiy tuzilishini shakllantirishning o‘ziga xos usuli”<sup>16</sup>, – deb izohlaydi. Darhaqiqat, retrospektiv hikoya qahramonning ichki dunyosini tahlil qilish, asar personajining o‘y-xayollari, iztirob va kechinmalarini berish vositasiga aylanib, ularning xatti-harakatlarini o‘z

---

<sup>12</sup> Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004. – B.103-104.

<sup>13</sup> Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси: сюжет ва конфликт: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1993. – Б.27-37.

<sup>14</sup> Umurov H., Nasirov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Samarqand: SamDU, 2021. – B.99.; Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.122-124.

<sup>15</sup> Qarang: Hudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007. – B. 60-65.

<sup>16</sup><https://cyberleninka.ru/article/n/retrospeksiya-kak-sposob-postroeniya-liricheskogo-syuzheta-v-poezii-s-a-esenina-motiv-vozpominaniy/viewer>

tilidan tahlil qilinishi kitobxonga obrazni, asardagi vaziyat hamda mazmuni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Rus adabiyotshunosi M.Ponomaryova fikricha, “Retrospeksiya, birinchi navbatda, syujet va fabula vaqtidagi retrospektiv voqea joyining mos kelmasligidir. Bu har doim hikoyaning progressiv rivojlanishidagi o‘ziga xos kechikishni anglatadi”<sup>17</sup>. Albatta, retrospektiv syujetda xronikali syujetdan farqli ravishda voqealar har doim progressiv rivojlanishda kechmaydi. Vaqti-vaqti bilan muallif g‘oyasi va vaziyat taqozosidan u yoki bu qahramon o‘tmishiga yoki o‘tmishda bo‘lgan hodisalarga murojaat etish rivoya vaqtining o‘ziga xosligini ta‘minlaydi.

Adabiyotshunos T.A.Piruskaya talqinicha, “Retrospeksiya – kitobxonning e‘tiborini jalb qiladigan, qayta o‘qishga undaydigan, o‘qiganlari haqida fikr yuritadigan rivoya texnikasi”<sup>18</sup>dir. Retrospeksiya nuqtalari bir vaqtning o‘zida turli vaqt va syujet liniyalarining tutashish nuqtasi hisoblanib, ijtimoiy aloqalarning paydo bo‘lishiga bog‘liq bo‘ladi.

Syujetning bunday qurilishi haqida o‘zbek adabiyotshunosligida ham qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, adabiyotshunos A.Rahimov retrospeksiya quyidagicha ta‘rif beradi: “Yozuvchi asarda sodir bo‘layotgan asosiy voqealarning rivojlanishini to‘xtatib qo‘yib, orqaga, o‘sha voqealarning boshlanish manbalariga qaytadi. Bu, ko‘pincha, taqdiri tasvirlanayotgan personajning o‘tmishiga – biografiyasining oldingi bosqichlariga qaytish tarzida yuz beradi. Bu esa o‘z navbatida, personajlarning ahvoli ruhiyasi, xarakteri hamda kelajagini ham tasavvur qilish uchun imkon tug‘diradi”<sup>19</sup>. Aslida, bir qarashda syujet voqealari to‘xtab qolgandek tuyulishi mumkin. Lekin voqealar rivoji tashqi harakat dinamikasidan ichki harakat dinamikasiga ko‘chgan holda shiddat bilan rivojlanishda davom etadi.

T.Boboyev fikricha, “Asosiy voqea kulminatsiyadan boshlanadi, so‘ng muallif chekinish usulini qo‘llab kulminatsiyagacha bo‘lgan voqea-hodisalarni, qahramonlar faoliyati misolida ko‘rsatadi”<sup>20</sup>. Ba‘zi hollarda esa voqealar tugundan boshlanishi (O‘.Umarbekovning “Yoz yomg‘iri” qissasi), odatiy holda davom etishi va kerakli tafsilotlar qo‘shilib, izohlanib ketishi mumkin (Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani).

Adabiyotshunos Z.Rahimov esa “retrospektiv (orqaga qaytuvchi) syujetda voqealar bir boshdan birin-ketin hikoya qilinmay, voqea ma‘lum joyda to‘xtatilib, uning o‘tmishiga, oldingi hayotiga murojaat qilinadi”<sup>21</sup>, – deb ta‘riflaydi.

“Retrospeksiya voqeani syujetning hozirgi holatidan o‘tgan zamonga qarab yo‘naltiradi. Ba‘zida syujetning holati faqatgina xotirlab, hikoya qilish uchun asos bo‘ladi”<sup>22</sup>, – deb izohlaydi B.To‘rayeva.

<sup>17</sup> <http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/20425/1/dc2-2011-48.pdf>

<sup>18</sup> Пирусская Т.А. “Точки ретроспекции” как структурообразующий элемент романного дискурса у Ф.М.Достоевского и Джордж Элиот // Вестник Московского университета. Серия 9. Филология, 2016. – С.142-154.

<sup>19</sup> Рахимов А. Ўзбек романи поэтикаси: сюжет ва конфликт: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Фарғона, 1993. – Б.27-37.

<sup>20</sup> Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.123.

<sup>21</sup> Рахимов З. “Кўхна дунё” романи поэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Фарғона, 2005.

<sup>22</sup> <https://uzjournals.edu.uz/philolm/vol2019/iss1/3/>

Ko‘rinadiki, retrospeksiya o‘tmish va hozirgi zamon o‘rtasidagi bog‘liqlikdir. Retrospeksiya tufayli o‘quvchi ilgari olingan ma‘lumotlarni qayta tiklab, uni qayta ko‘rib chiqishi va oxir-oqibat muallifning niyatini anglab yetishi mumkin. Avvaliga tushunarsiz, ikkilamchi bo‘lib tuyulgan ma‘lumot, takroran eslatib o‘tish orqali aniqlashadi va ma‘lum bir ahamiyatga ega bo‘ladi. Asosiy voqeagacha bo‘lgan hodisalar tasvirining muhim qismi bilan tavsiflanadi, ayrim hollarda asar voqealar nihoyasiga yetgan joydan boshlanadi. Bunday o‘tmishga nazar solish Isajon Sultonning “Boqiy darbadar”, “Ozod”, Xurshid Do‘stmuhammadning “Bozor”, Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanlarida ham qo‘llaniladi.

Romanlarda “qahramonning biografik o‘tmishiga qaytuvchi usul”<sup>23</sup> sifatida paydo bo‘lgan retrospektiv syujet tipi hozirgi zamon romanlarda ancha murakkab, tahliliy xarakter kasb etmoqda. U orqali shunchaki qahramonning o‘tmishi – biografiyasiga qaytib qolmasdan, asosiy voqeagacha bo‘lgan hodisalarni tasvirlash va bu orqali badiiy asar qahramonlarining ichki dunyosini, xarakteridagi o‘zgarishlar sababini tushunish, tahlil etish bilan birgalikda, asardagi “badiiy vaqt” imkoniyatini kengaytirib, asarda hozirgi va o‘tmish orasida ko‘prik vazifasida, qahramonning o‘tmishiga, rivojlanish tarixiga nazar solish uchun qulay vosita sifatida keng qo‘llanilmoqda.

Retrospektiv syujet tuzilishiga ko‘ra **sodda** va **murakkab** shakllarga ajratiladi. Shu o‘rinda murakkab retrospeksiya ham o‘z ichida sodir bo‘lgan vaqtiga ko‘ra: a) yaqin o‘tmishga murojaat; b) o‘tmishga murojaat; c) uzoq o‘tmishga murojaat ko‘rinishlarida qo‘llaniladi. Bundan tashqari, retrospeksiya badiiy asar tarkibida ishlatilish shakliga ko‘ra hikoyat (ibrat, bashorat), xotira (yodiga tushdi, esladi), rivoyat, havola, epigraf, tush, hikmat, dialog, retrospektiv chekinish va biografik retrospeksiya kabi turlarga ajratiladi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “**Tarixiy romanlarda retrospektiv syujetning xususiyatlari**” tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, uning birinchi fasli “**Retrospeksiya va hikoyachi nutqi**” deb nomlangan.

Hozirgi romanlarda orqaga qaytuvchi chekinishlar romanbop tasvirning faol va uzviy vositasiga aylandi. Farq shundaki, hozirgi romanlarda qahramon taqdirining ibtidosiga qaytish usuli shunday badiiy vositalar bilan amalga oshiriladiki, kitobxon buni sezmasdan qoladi. Hozirgi epik rivoyada orqaga qaytuvchi chekinishlarning badiiy vazifasi ham o‘zgardi. Bu usul ishtirok etuvchi shaxslarning o‘tmishini jonlantirish maqsadiga xizmat qilibgina qolmasdan, endi u hamma narsa ag‘dar-to‘ntar bo‘lib ketgan hollarda qo‘llanadigan bo‘lib qoldi. Ular orqali ishtirok etuvchi shaxslarning o‘y-xayollari, iztirob va kechinmalari, o‘z qilmishlarini tahlildan o‘tkazishlari beriladi. Shunday qilib, syujet qurishning orqaga qaytuvchi usuli qahramon ichki dunyosini taftish qilish vositasiga aylandi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida biografik retrospeksiyaning ustunligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Asar boshlanishida muallif bevosita Hasanali o‘tmishiga murojaat etadi: “*Hasanalini bolaliq vaqtida Erondan kishi o‘g‘irlab*

---

<sup>23</sup> Коробан В. Современный молдавский роман. – М.: Сов. писатель, 1979. – С.103.

*kelguchi bir turkman qo'ldan Otabekning bobosi o'n besh tillo barobariga sotib olgan edi*"<sup>24</sup>.

Yuqoridagi misolda muallif nutqi orqali Hasanali o'tmishiga biografik qaytish shaklidagi retrospeksiya kitobxon Hasanalining Yusufbek hoji uyiga qanday kelib qolganini, bu oiladan ko'rgan yaxshiligi va bu oilaga munosabatini bilib oladi, Otabekka bo'lgan sadoqati, otalaracha mehrini his etadi. Keyingi voqealar rivojida, ya'ni Otabek taqdirida Hasanalining doimiy hamroh ekanligini tushunib yetadi. Dastlab tushunarsiz bo'lgan munosabat va noma'lum personaj – Hasanali qiyofasi, xarakteri aniqlashadi.

Shuningdek, Qodiriy ijodining yana bir mahorati kitobxonni so'nggi daqiqalargacha hayajonda ushlab tura olishidadir. Kumushning majburlab turmushga berilishi, uning bu vaziyatdagi o'y-kechinmalari, dil iztiroblari parallel ravishda Otabekning notanish qizga unashtirilganidan to uylangunigacha bo'lgan voqealar, tuyg'ularni kitobxon ham o'z qahramonlari bilan birgalikda his-hayajonda ushlab turilishi va to'satdan chimildiqlikda Kumushbibining "Siz o'shami?" deb bergan savoli kitobxon kechinmalarini ostin-ustun qilib yuboradi. Anglashilmay qolgan voqealarni kitobxonga aniqlashtirish zarurati tug'iladi. Shu o'rinda muallif voqealar rivojining keyingi qismiga o'tishdan oldin o'tmishga – bu sevgining tarixiga murojaat etadi: *"Otabek Marg'ilonga kelganning ikkinchi kuni poyafzal bozorida bo'lg'an edi. Asr namozning vaqti o'tib borg'anliqdan ul shundagi do'kondorlarning birisidan tahorat olish uchun suv so'radi. Ko'chadagi suv ariqning tegidan sayoz oqar, shuning uchun undan foydalanish qulay emas edi*"<sup>25</sup>.

Endi kitobxon uchun "Siz o'shami?" savolining mohiyati – ularning ilk uchrashuvi, bu ajib sevgi tarixining boshlanish nuqtasi, asar boshida Otabekning ajabtovur xatti-harakatlari, o'ychan, g'amgin holatining asl sabablari ochiladi.

"Mehrobdan chayon" romani syujeti qurilishi ham Qodiriy ijodiga xos mahorat bilan tuzilgan. Jumladan, romanda syujet qurilishining retrospektiv usuli va elementlaridan mohirona foydalanilgan. Dastlab, yozuvchi bevosita asosiy voqealar bayoniga o'tadi. Asarning ma'lum qismiga yetganida, biror holat, xarakterni izohlash ehtiyoji tug'ilganda uning o'tmishiga qisqa murojaat qilishi, avvaliga tushunarsiz xatti-harakat va voqealarga aniqlik kiritadi. Bu esa yozuvchi zimmasidagi vazifani yengillashtiradi.

"Mehrobdan chayon" romanida adib umumiy hisobda qirq marta turli xil ko'rinishdagi retrospeksiya foydalangan. Abdulla Qodiriy ijodidagi retrospeksiyaning o'ziga xos jihati, muallif asosan "biografik retrospeksiya"dan foydalanadi. Masalan, *"Solih maxdum 1230-1290-nchi hijriy yilida "Ho'qandi firdavsmonand" da yashag'an bir muallim va imom, o'z zamonasining istilohi bilan aytqanda "maktabdor domla"dir*"<sup>26</sup>.

Yozuvchi dastlab Solih maxdum o'tmishiga qaytib, uning oilasi haqida ma'lumot beradi. Keyinchalik voqealar uning oilasi o'tmishiga aniqlik kiritishni taqozo etib, muallif uzoqroq o'tmishga qaytadi. Keyingi sahifada voqealarning mantiqiy davomi sifatida Solih maxdum bolaligi tasviri beriladi. Kitobxon asarda

<sup>24</sup> Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б.8.

<sup>25</sup> Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2004, – Б.61.

<sup>26</sup> Қодирий А. Меҳробдан чаён. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б.8-9.

tasvirlanadigan Solih maxdum obrazining asosiy voqealargacha bo'lgan o'tmishi haqida ma'lumotga ega bo'ladi.

Xuddi shunday shaklda muallif Nigorxonim, Ra'no va keyingi o'rinlarda Anvar hamda uning oilasi haqida retrospeksiya yordamida ma'lumot berib, izohlab, kitobxonni asosiy voqealarga tayyorlab oladi. Demak, asar boshidagi retrospektiv qism bir vaqtning o'zida qahramonlarni anglash va keyingi voqealarda ularning xatti-harakatini tushunish imkoniyatini beradi. Bunday holatda retrospektiv qism syujet voqealarini rivojlantiruvchi vazifasini ham bajaradi.

Epik asarlarda asosan voqealar bayonini muallif o'z qo'lida ushlab turadi. Ba'zi holatlarda muallif bu vazifani personajga topshiradi. "Mehrobdan chayon" romanida yuqoridagi hikoyachi toifalaridan tashqari, personaj-hikoyachilarni ham uchratamiz. Masalan, "*Sizning shu gapingiz bilan bir kishi yodimg'a tushti: o'zi mulla Abdurahmonning qavmlaridan bo'lg'an oq ko'ngilli sodda bir kishi bor*"<sup>27</sup>.

Shu o'rinda personaj nutqi orqali voqealar muallifning yoki "xolis"-hikoyachining "tili"dan beriladi. Lekin personajning nutqida o'zining shaxsiy his-tuyg'ulari chuqurroq, kengroq berilgan. Yuqoridagi nutq personaj tilidan berilgan, lekin buni keltirish bilan ijodkor personaj ichki olamini, dunyoqarashi va xarakterining o'ziga xos qirralarini ochib berishga intilganligi ko'rinib turadi. Shuning o'zigina muallif obrazining ifodalanganligini bildiradi.

Adib romanda retrospeksiya, uning turli shakllari va retrospektiv elementlardan mohirona foydalangan. Abdulla Qodiriyning ushbu romanlarida retrospeksiyaning biografik, retrospektiv dialog, hikoyachi-muallif, hikoyachi-personaj retrospeksiyasi yaqin o'tmish, o'tmish, uzoq o'tmishga murojaat ko'rinishlaridan foydalanilgan.

Bobning ikkinchi fasli "**Retrospeksiya va xarakter talqini**" deb nomlangan.

Zamonaviy romanlarda retrospektiv chekinishlar romanbop tasvirning faol va organik vositasiga aylandi. Syujet voqealari o'rtasidagi munosabatlar, aloqalar retrospeksiya vositasida amalga oshirilmoqda. Qahramon o'tmishiga murojaat uning xatti-harakati, xarakterining u yoki bu tomonini ochish, tushuntirish, yuz bergan voqealar sabablarini izohlash, aniqlashtirish uchun qulay usul bo'lib qolmoqda.

Muallif badiiy asarning dastlabki qismlarida asosiy voqealarda ishtirok etuvchi personajlarni asta-sekin kitobxonga tanishtiradi. Bunday hollarda muallif asosan retrospeksiyaning personaj o'tmishiga biografik qaytish shaklidan foydalanadi. Bu esa, o'z navbatida, sahifalab yozilishi kerak bo'lgan ma'lumotni qisqa o'tmishga murojaat shaklida berish va bu bilan muallifni ortiqcha voqeabozlikdan, kitobxonni esa zerikishdan saqlaydi. Masalan, "*Ovloq Xorazmdan, Abu Rayhon Beruniy yurtidan kelgan Piri Bukriy G'aznada attorlik qiladi*"<sup>28</sup>. Yana bir misolda esa: "*Bundan yaqin bir oy avval Piri Bukriy Malik ul-sharobga nozik bir iltimos bilan murojaat qilgan*"<sup>29</sup>. Keltirilgan misollardan kitobxon Piri Bukriy obrazi haqida ma'lumot olish bilan birgalikda, uning asardagi salbiy qahramonlardan biri ekanligini, Piri Bukri bilan Malik ul-sharob o'rtasidagi munosabat salgina

<sup>27</sup> Қодирий А. Меҳробдан чаён. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б.182.

<sup>28</sup> Ёқубов О. Кўҳна дунё. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б.7.

<sup>29</sup> Ёқубов О. Кўҳна дунё. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б.6.



buzilganini bilish mumkin. Lekin ahamiyatlisi shuki, “iltimosning nozikligi” jumlasini kitobxonni o‘ylantiradi va bu nozik iltimosga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Keyingi o‘rinda muallif Piri Bukriyning Malik ul-sharobga qilgan “nozik iltimos”i tafsilotlarini ochishga kirishadi. *“Bundan uch oy muqaddam Malik ul-sharob qul bozoridan o‘n besh-o‘n olti yashar bir joriya sotib olgan edi”*<sup>30</sup>, - degan ma’lumotni keltirib o‘tish bilan kitobxonni o‘tmish voqeligidan xabardor qiladi. Shu o‘rinda kitobxonni o‘ylashga majbur qilgan, uning yodidan ko‘tarilgan voqealarga qayta murojaat etiladi. Natijada u kitobxon xayolida qayta faollashadi va jumboqning asl sababi oshkor etiladi. Retrospeksiyaning yana bir muhim xususiyati oydinlashadi, ya’ni oldin berilgan ma’lumotga qayta murojaat etib, uni faollashtirish va ahamiyatini oshirish maqsadiga erishadi. Parcha orqali Beruniy va Piri Bukriy orasida Sadafbibi nomli kichik nizo borligi ayon bo‘ladi. Piri Bukriy haqida berilgan dastlabki ma’lumotlar esa uning bu muammoni hal qilishda hech nimadan qaytmasligiga ishonch hosil qildiradi.

Mayxonada shohlar haqida bahs ketadi. Bobo Xurmoning xarakteri, xatti-harakatining o‘ziga xos jihatlari bilib olish zarurati tug‘iladi. Adib shu zahoti hikoyachilik vazifasini Bobo Xurmoga topshirdi: *“– Shundaykim, qadim zamonlarda ikki xesh, ikki birodar safarga chiqmish. Yo‘l yursa ham mo‘l yurib, sahroda o‘sgan bir sada tagiga borib qo‘nmish. Topgan-tutganlarini baham ko‘rib, suhbat qurmish”*<sup>31</sup>.

Ushbu parcha orqali birinchidan, roman voqealarida rivoya usulining ikki xil bo‘lishi mumkinligi, ya’ni dastlab hikoyachilik vazifasini muallif o‘zi bajarayotgan bo‘lsa, keyinchalik uni personaj qo‘liga topshirib, o‘zi oddiy tomoshabinga aylanishi oydinlashadi. Ikkinchidan, personaj nutqi bilan aytilgan retrospeksiyaning yana bir shakli – retrospektiv rivoyat qo‘llaniladi. Uchinchidan, Bobo Xurmoning sulton haqidagi fikri, uning xarakteri va qaysi tomonda ekanligi aniqlashadi. Xarakter deganda – keyingi o‘rinda Bobo Xurmo sultonga xayrihoh emasligi va unga qarshi qandaydir harakat qilsa bu kitobxon uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi. Retrospektiv rivoyatning asosiy funksiyasi – obrazning o‘ziga xosligini ochib berishga xizmat qiladi.

Keyingi qismda Beruniy va Piri Bukriy ilk uchrashuvi haqida xotiralar beriladi: *“Kecha ertalab u dori buyurish uchun attorlik rastasiga o‘zi borgan edi. Tanish attorga uchrab, uyga qaytayotgan edi, muyulishdagi do‘kondan, Sadafbibi aytganidek, to‘nkaga o‘xshash bir kimsa otilib chiqdi-da, pildirab kelib, yo‘lini to‘sdi”*<sup>32</sup>.

Ushbu parchaning o‘ziga xos jihati shundan iboratki, muallif dastlab yaqin o‘tmishga, keyin uzoq o‘tmishga va yana yaqin o‘tmishga murojaat etadi. Ya’ni muallif bir necha qismlardan tashkil topgan murakkab retrospeksiyaning foydalanadi. Mazkur retrospektiv qismlar bir-birini to‘ldirib, izohlab, aniqlashtirib keladi. Kitobxon Piri Bukriy bilan Beruniyning eski tanishligi va Piri Bukriy o‘tmishi, xislatlari haqidagi ma’lumotlarini boyitib oladi. Retrospektiv qismning murakkabligi unda dialog, monolog, his-tuyg‘ularning mujassamligida ko‘rinadi.

<sup>30</sup> Ёкубов О. Кўхна дунё. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б.14.

<sup>31</sup> Ёкубов О. Кўхна дунё. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б.12.

<sup>32</sup> Ёкубов О. Кўхна дунё. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б.23.

O‘zbek adabiyotida roman syujeti qurilishining retrospektiv usuli yozuvchilarga badiiy vaqt imkoniyatidan keng foydalanish, personajning barcha qirralarini to‘liq ochish bilan birgalikda, sahifalab yozish kerak bo‘lgan ma’lumotlarni qisqa o‘tmishga qaytish orqali berish va bu bilan uzundan-uzun so‘zlardan saqlanish imkonini bermoqda. Ko‘pincha, qahramonning o‘tmishiga biografik murojaat etish, uni xarakter sifatida anglash, avvaliga, unga xos bo‘lgan tushunarsiz holatlarni aniqlashtirish va uning xarakteridagi o‘ziga xos jihatlarining shakllanishi, bunga sabab bo‘lgan omillarni tahlil etish imkonini beradi. Masalan, O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasini” romanidagi epizodlardan birida retrospeksiyaning peyzaj shakliga duch kelamiz: *“Odatda sha‘bon oyi bunday sovuq kelmas, Samarqand bog‘lari nafis qizil-qirmizi rangga bo‘yalib, iliq kuz oftobida mayin tovlanib, erkanlab yotardi...”*<sup>33</sup>.

Ushbu peyzaj tasviri o‘ziga xos badiiy-estetik funktsiya bajarib, Samarqandning XV asrdagi kuzgi go‘zal, betakror manzaralarini o‘quvchi ko‘z o‘ngida namoyon etadi.

Roman syujet qurilishida retrospeksiya turli ko‘rinishlarda mohirona qo‘llanilgan. Asarda bir-biriga chambarchas bog‘langan murakkab (ikki va undan ortiq) retrospeksiyalar ham bir necha bor qo‘llanilgan: *“O‘tgan kuni tong payti ustod Mirzo Ulug‘bek rasadxonaga tashrif buyurgan edi. Yo‘lbars terisi yopilgan o‘z kursisida o‘tirib, timqora osmonga razm solib uzoq xayol surdi”*<sup>34</sup>.

Keltirilgan misolda murakkab retrospeksiyaning o‘ziga xosligi, to‘la ma’noda murakkab shaklga ega ekani ko‘rinadi. Avvalo, vaqt nuqtayi nazaridan tahlil qilinsa, birinchi misolda muallif yaqin o‘tmishdan voqealar beradi, keyin holatni yana aniqlashtirish uchun uzoqroq o‘tmishga murojaat etadi va yana yaqin o‘tmishga qaytadi. Asarda davrlararo sayohat muallifga o‘z maqsadiga to‘liq erishish uchun keng imkoniyat yaratib, unga bu borada butunlay erkinlik beribgina qolmasdan, asarni ortiqcha voqealar bayonidan asarmoqda. Kitobxonga esa asar mazmuniga chuqurroq kirib borishga, voqealarning mantiqiy ketma-ketligini bog‘lashda ko‘priq vazifasini bajarmoqda. Ikkinchi misolda, voqealar dastlab Ali Qushchi tilidan beriladi, keyingi voqealar tafsilotlarini muallif yana o‘z tilidan bayon etadi. Demak, yuqoridagi misolda hikoyachi-personaj, hikoyachi-muallif retrospeksiyasi kabi shakllari mavjud.

O.Yoqubovning poetik mahorati retrospeksiyaning roman badiiy qiymatiga putur yetkazmagan holda turli shakl va shamoyillarda qo‘llash, turli tajribalar o‘tkazishida ko‘rinadi.

Demak, O.Yoqubov ijodida retrospektiv rivoya kim tomonidan bajarilishiga ko‘ra (hikoyachi-personaj, hikoyachi-muallif retrospeksiyasi), tuzilishiga ko‘ra (sodda va murakkab retrospeksiya), retrospektiv peyzaj, retrospektiv esdalik, retrospektiv hikoyat va retrospektiv tush kabi turli xil ko‘rinishlarda qo‘llanilgan.

Uchinchi bob **“Zamonaviy romanlarda retrospektiv syujetning o‘rni”** deb nomlanib, uning birinchi faslida **“Davr muammolari va falsafiy ramziylik”** tahlilga tortilgan.

---

<sup>33</sup> Yoqubov O. Ulug‘bek xazinasini, – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – B.43.

<sup>34</sup> Yoqubov O. Ulug‘bek xazinasini, – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – B.6.

Roman janrining keyingi rivoji kitobxonga – tasvirlanayotgan obraz bilan birgalikda sevish, nafratlanish, iztirob chekish, umuman olganda qahramon ichki dunyosini tahlil etish imkonini beradi. Keyingi yillarda yaratilgan romanlar shunchaki xronologiyaga asoslangan voqealar bayoni yoki ketma-ketligi bo‘lib qolmay, unda assotsiatsiyalar, ichki po‘rtanalar, kolliziyalarga boy, asosiy voqealar qahramonlar ongida kechib, voqealar ichki harakat dinamikasiga asoslanishi tobora kuchayib bormoqda. Mualliflar bunday badiiy asarlarda turli xil usullardan, murakkab kompozitsion birliklardan mohirona foydalanishi yangilik emas. Romanda syujet qurilishining ana shunday ko‘rinishlaridan biri – retrospeksiya dan ham foydalanish odat tusiga kirmoqda. Endilikda, muallif retrospeksiya dan shunchaki kompozitsion element (kiritma epizod) sifatida emas, balki qahramon o‘tmishini, uning ichki dunyosi, fe‘l-atvorini, voqealarning sabablarini izohlash va tadqiq etish imkonini beruvchi yaxlit syujet tipi shaklida bor murakkablikda qo‘llamoqda. Retrospeksiyalar ichida, hatto, o‘z mustaqil syujet zamoniga ega yirik retrospeksiyalar ham mavjud.

Retrospeksiyalarning oddiyligi ham, murakkabligi ham aynan ularning ana shu g‘oyaviy-kompozitsiyaviy badiiy maqomlarida. Shu nuqtayi nazardan Xurshid Do‘stmuhammadning “Bozor” hamda Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanlarining badiiy zamon poetikasiga yondashilsa, har ikkala roman tarkibidagi retrospektiv qismlar tarkiban faqat birgina (oddiy ya‘ni sodda) yoxud ikki va undan ortiq mundarijadagi (murakkab) retrospeksiyalardan iborat. Tahlillarga ko‘ra “Bozor” romanida odiy, ya‘ni sodda retrospeksiyalar soni 28 ta, “Muvozanat”da 23 ta bo‘lsa, murakkab retrospeksiyalar esa “Bozor”da 11 ta, “Muvozanat”da 9 tani tashkil etadi.

Retrospektiv qismlar mundarijalari mazmunan boy bo‘lib, asosan, kompozitsiyaviy qoliplash, psixologik hamda badiiy asoslashning turli ko‘rinishdagi (dramatik, lirik, psixologik, tragik va h.k.) usulidir. Retrospeksiyalarni qayd etganda o‘rtacha statistikasi “Bozor”da 39 ta, “Muvozanat”da 32 ta qiyosiy-tahliliy tipologiyasi ular mazmuniy umumlashmasining quyidagi mundarijalari uchun asos bo‘ldi: dramatik, tragik, lirik, psixologik va h.k.

**Dramatik retrospeksiyalar** hayotiy voqealar badiiy maqomda hamisha dramatik (ba‘zan fojeiy) mohiyat kasb etadi. Shuningdek, retrospektiv qism ichki va o‘z-o‘zini tahlil, hissiy po‘rtanalar, kechinma va iztiroblarning keskin zamonlari tig‘izligi drammatizmi ifodalaridir. Dramatik retrospeksiyalar bosh qahramon qismatining eng murakkab, chigal, hal qiluvchi daqiqalari “impuls”idir: *“O‘ylab ko‘rsa, yangi tug‘ilgan daqiqalarida u ham arzandalik gashtini surgan ekan. Keng va mutlaqo yot bo‘shliqni boshiga ko‘tarib “inga”layotib nafas ololmay qolganida kimdir dumbachasiga avaylab shapatilagan, shunda u yana ovozining boricha ...”*<sup>35</sup>.

**Tragik retrospeksiyalar** mazmun-mundarija jihatidan dramatik turdan ham dramatikroq: *“Tug‘ilmaslikka jon-dilidan rozi edi, u bu haqda o‘ylagani o‘ylagan. Ko‘nglining bir chekkasida bu o‘ylarning bema‘niligini tan olsa-da, hukmi qat‘iy – har bir inson onasidan tug‘ilmay qolish ehtimolini boshdan kechiradi!...”*<sup>36</sup>;

---

<sup>35</sup> Хуршид Дўстмухаммад. Бозор // Роман. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б.73.

<sup>36</sup> Хуршид Дўстмухаммад. Бозор // Роман. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б.61.

*“Yo ‘lda sog‘in sigir voqeasini o‘yladi. O‘ylagan sari ko‘ngli buzilib, ezilardi. Nima qilish kerak? – Bu savol xuddi biqinda turgan qattiq sanchiqday butun borlig‘ini ham parmaldardi”<sup>37</sup>.*

**Lirik retrospeksiya** tahlildagi romanlar epik zamonining “bezaklar”i hisoblanadi: *“...U ho‘l mevalar sotiladigan rastalar oralab borayotgan edi. Xushro‘ygina qiz e‘tiborini tortdi. “Oppoqqina ekan-a!” deb yubordi u beixtiyor ovoz chiqarib, shunday dedi-yu, chamasi notanish qizning chehrasidagi nurdek oqlik uning ko‘ngliga to‘laligicha ko‘chdi-qoldi”<sup>38</sup>.*

**Psixologik retrospeksiya** – o‘tmish zamonlarining davriy murakkab qorishiq montaji, odatda, syujet zamonining yo eng dramatik, psixologik murakkab, ruhan og‘ir po‘rtanalarida yoxud qahramon zamonining aqliy izlanish, kecha, bugun va erta haqida teran tafakkur qilish, ertaga ishonch bilan umidbaxsh qarash, orzu-umidlar zamonida yashash komilligi yoki ularga jismonan erisha olmay, izhori dil armonida, aqliy-hissiy tahlillar quyunida ma‘nan va ruhan yetish tasavvuri zamoni taqozosidir: *“Yusuf nazarida ana shunday yolg‘izlikka giriftor bo‘lganlar oz emasdi. Ha-ha, xuddi shunday, sobiq Ittifoq davrida davlat otalik vazifasini o‘tagan va birovning himoyasiga kirib, taskin topishga ruhan moyil olomonga shu bas edi”<sup>39</sup>* yoki *“Kechagina esa u butunlay boshqacha o‘ylar, vaziyatni butunlay o‘zgacha tahlilu talqin qilar edi. Kecha Yusuf o‘zi va Oygulni bir-biriga sira mengzamaydigan ikki olam deb bilardi”<sup>40</sup>.*

**Retrospeksiya ichra retrospeksiya** tahlildagi romanlar umumretrospektiv mundarijasining chorak qismidan ortig‘ini tashkil etib, epik yaxlit ko‘rinishda retrospektiv roman va retrospeksiya hamda ichki “individual” shamoyilda retrospeksiya ichra retrospeksiya maqomlarida ko‘proq dramatik, ba‘zan foje, qisman esa psixologik, lirik tiplardan, ayrim o‘rinlarda esa mazkur tiplarning ikki yoxud undan ortiq mazmun qorishmasidan, shaklan xotira, havola kabilardan iborat.

**Retrospektiv xotira** “Bozor” romanining epik zamoni o‘ngga yaqin retrospektiv xotira usuli, “esladi”, “yodiga tushdi”, “esiga tushdi”, “eslatdi” singari grammatik hozirgi zamon ifodalari bilan alohida ajralib turadi: *“Fozilbekning nafasi ichiga tushib ketdi, bolalikdagi tengqur Pardavoyni esladi: qop-qora, ko‘zi ukkinikidek chaqchaygan, labi do‘rdoq, afti hamisha tirnalga-ko‘kargan...”<sup>41</sup>.*

**Retrospektiv havola**, asosan, muayyan zamon va makon tarixiy voqealarining aniq va to‘g‘riligini dalillovchi yoxud inkor etuvchi, shuningdek, tarixiy shaxslarning hayoti, faoliyati, qismatiga tegishli ilmiy, badiiy, diniy, tarixiy va hatto, og‘zaki manbalar qaydidan iborat retrospeksiya bo‘lib, mohiyatan o‘tgan zamon hisoblanadi: *“Zako‘nchi aslida chakki odam emasdi, ko‘pchilik yoqtirmasligi sababi esa bitta – zako‘nchi dunyoni faqat qonun ko‘zi bilan ko‘rar edi, xolos. Unga ishi tushmagan odam yo‘q, eshigiga bosh urib bormagan...”<sup>42</sup>.*

<sup>37</sup> Улуғбек Ҳамдам. Мувозанат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б.99.

<sup>38</sup> Хуршид Дўстмуҳаммад. Бозор // Роман. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б.37.

<sup>39</sup> Улуғбек Ҳамдам. Мувозанат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б.318.

<sup>40</sup> Улуғбек Ҳамдам. Мувозанат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б.321-323.

<sup>41</sup> Хуршид Дўстмуҳаммад. Бозор // Роман. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б.170.

<sup>42</sup> Хуршид Дўстмуҳаммад. Бозор // Роман. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б.11.

Retrospeksiyaning tarkiban murakkab mazkur “serqatlam” zamon tizimi, muallif ijodiy individualligining namunasidir.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “**Qahramon va xarakterlar talqini**” deb nomlangan.

Badiiy asarlarda muallifning g‘oyaviy konsepsiyasidan kelib chiqqan holda badiiy zamonning uzviy tarkibiy qismini tashkil etuvchi turli usullardan keng foydalanadi. Retrospeksiya ana shunday samarali ijodiy-estetik usullardan biridir.

Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanida syujet qurilishining retrospektiv usulidan yigirma marta foydalanilgan bo‘lib, ularni tuzilishi, mazmuni va shakliga ko‘ra turli qismlarga ajratish mumkin. Xususan, o‘n marta sodda retrospeksiya (150, 159, ...198-betlar), o‘n martata murakkab retrospeksiya (153, 161, ...221-betlar) foydalanilgan. Jumladan, romanga dastlab, etikdo‘z obrazi kirib keladi, kitobxon bevosita obrazga qiziq boshlaydi, muallif drammatizmni kuchaytirish, kitobxonning obrazga nisbatan qiziqishini yanada oshirish maqsadida etikdo‘z qirq uch yoshda ekanligi, otasidan qolgan eski tegirmonni ijaraga berib mablag‘ to‘plagani, sudxo‘rlik bilan shug‘ullanganligi, biroq etikdo‘z na boy, na kambag‘al o‘rtamiyona bir odam ekanligini ta’kidlaydi. Keyingi qismda esa etikdo‘z hazratning bashoratini eslashi keltiriladi: *“Hazratni u bundan o‘ttiz uch yil avval uchratgan edi. Hazrat yolg‘izoyoq yo‘ldan asosini tutganicha kelarkan, bola adir yonbag‘rida qamishdan nay yasab o‘tirar, sal narida qo‘ylari o‘tlab yurishardi”*<sup>43</sup>.

Yuqoridagi retrospektiv qismning muallif kelajagiga, fojiviy qismatiga ishora qilishi retrospeksiyaning shaklan retrospektiv bashorat, mazmunan fojiviy retrospeksiya, rivoyaning kim tomonidan amalga oshirilishiga ko‘ra hikoyachi-personaj retrospeksiga ajratiladi.

Yuzaki qaraganda, hammasi oddiy narsadan, oqibatini o‘ylab o‘tirishga-da erinib qilingan harakatdan boshlangandek: *“Mahkum bir damgina nafas rostlash uchun etikdo‘zning devoriga suyandi.*

*– Hali sen mening devoringa suyanadigan bo‘ldingmi? Imillama! – deb qichqirdi etikdo‘z ham va shiddat bilan olg‘a intilib, uni ikki qo‘llab itarib yubordi”*<sup>44</sup>.

Bir etikdo‘z obrazi orqali butun bashariyatga ishora etuvchi, ramzlarga boy bo‘lgan ushbu roman insonni ruhiy poklanishga va iymon-e‘tiqodi mustahkam bo‘lishiga undovchi asardir. Etikdo‘z qahramoni jahon adabiyotida keng tarqalgan, Agasfer nomi bilan mashhur bo‘lgan afsonaviy timsoldir. Uning Muborak zot bo‘lmish Iso alayhissallomga qo‘l ko‘tarishi va buning evaziga boqiy umr kechirishi ham sayyor syujet hisoblanadi.

Murakkab retrospeksiya – ikki va undan ortiq retrospektiv qismlardan tashkil topadi. Bunday holatda biri uchun ikkinchisi yoki uchinchi retrospektiv qism qoliplovchi yoki qoliplanuvchi vazifasida keladi.

---

<sup>43</sup> Исажон Султон. Боқий дарбадар // Қорақуш юлдузининг сири. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б.149-150.

<sup>44</sup> Исажон Султон. Боқий дарбадар // Қорақуш юлдузининг сири. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б.151.

Romanning “Badaviylar” qismi aynan shunday murakkab retrospektiv qism bilan boshlanadi: *“Tarixda arab sahrolarida samum oldidan kezib yurgan bir odamni ko‘rganlari haqida gap-so‘zlar bor”*<sup>45</sup>.

Aslida to‘rt qismdan iborat (“Tarixda arab sahrolarida samum oldidan...”, “Aytadilarki, bir kuni samum odami sahro badaviylarining...”, “Hamma joyda u ana shunday quvg‘inga duchor bo‘lar...”, “Aytadilarki, u yana bir necha yuz yil Tangri Taoloning...”) murakkab retrospektiv qism shaklan: retrospektiv havola + retrospektiv rivoyat + biografik-retrospeksiya + retrospektiv rivoyat; mazmunan: dramatik + fojiviy retrospeksiya, hikoyachi-muallif retrospeksiyasi va retrospektiv dialog singari turli xil ko‘rinishlardan iborat ekanligini ko‘rish mumkin. Etikdo‘z obrazi, uning kelajakdagi taqdiri va barcha u haqidagi voqealarning realligiga ishonirish, tasvirlanayotgan voqealarni izohlash maqsadida turli xil diniy rivoyat hamda havolalardan foydalanish dramatismni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o‘zbek romanchiligida tub burilish yasagan, olam va odam munosabati haqida mushohada yuritilgan, shaklan xilma-xildek ko‘ringan, lekin mazmunan favqulodda dolzarb bo‘lgan voqealarning mahorat bilan o‘zaro kompozitsion yaxlit tizimga birlashtirilgani, syujet qurilishining retrospektiv usulidan turli xil shakllarda foydalana olganligi va bu qismlarning muallif g‘oyasiga xizmat qilgani e‘tibordir.

Bugungi kun nasridagi badiiylikning “urf” bo‘layotgan shakllaridan biri ramzdir. Ramziy ma‘nolarga yo‘g‘irilgan o‘zbek postmodernizm romanlarining yorqin misoli Isajon Sultonning “Ozod” romanidir.

Adibning “Boqiy darbadar” romani singari “Ozod” romanida syujet qurilishining – retrospektiv shakldan keng, statik hisobda ellik olti marta foydalanilgan. Isajon Sulton romanlarida retrospektiv rivoyat, retrospektiv hikmat shakli juda ko‘p o‘rinlarda qo‘llanilgan. Retrospektiv syujetning Isajon Sulton ijodidagi yana bir o‘ziga xosligi, unda asosan dramatismni kuchaytirish uchun ishlatilishidir.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, adib romanlarida retrospeksiyaning hikmat shakli ko‘p o‘rinda qo‘llanilgan. Buni adib asarlarida asosiy g‘oyani olam va odam haqidagi falsafiy qarashlarning ilgari surilishi bilan izohlash mumkin: *“Ko‘l tugagan joydan u yog‘i toshloq edi. Yuz odimcha yurilgandan keyin Ozod haqiqatan ham yarmigacha yerga ko‘milib yotgan qadimiy bir ko‘zani ko‘rdi. Shamol bir g‘uvillab uning ichiga kirib, qaytib chiqdi”*<sup>46</sup>.

Hikmatlarning zamirida katta ma‘no yashirin, ular o‘ta donishmandlik bilan bitilgan va nazmiy tartibga solingan. Ushbu bitiklar o‘quvchilarning har biriga ularning tushunchalari va dunyoqarashidan kelib chiqib turlicha ta‘sir ko‘rsatadi, o‘z darajasida mulohaza uyg‘otadi. Keltirilgan qismlar odamni o‘z-o‘ziga tanqidiy nazar bilan qarashga, o‘zligini taftish qilishga undaydi.

“Ozod” romanida retrospeksiyaning kompozitsion elementlaridan biri – retrospektiv portret shakliga duch kelamiz. Kishilarning asarda badiiy so‘z vositasida chizilgan qiyofasi portret deb ataladi. Portretga, shuningdek,

---

<sup>45</sup> Isajon Sulton. Boqiy darbadar // Qoraqush yulduzining siri. – Toshkent: Faqur Fuлом nomiдаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б.153-156.

<sup>46</sup> Isajon Sulton. Ozod // Шарқ юлдузи журналі, 2011. 4 сон, – Б.62.

qahramonning gap ohangi, o'ziga xos qiliqlari va turli ruhiy holatlarga munosabati bilan uning yuzida bo'ladigan o'zgarish(mimika)lar ham kiradi.

Ma'lumki, portret qahramonning ichki dunyosini aks ettirib, voqealarni tez va to'g'ri tushunishga ko'maklashadi. Bundan tashqari, portret muallifning tasvir etilayotgan kishiga munosabatini ifodalaydi, ya'ni shu shaxsning syujetda o'ynaydigan roli haqida oldindan darak beradi: *"U – ozg'in, yuzlari qorayib ketgan, barmoqlari qiyshiq, ko'zlarida jahannam o'ti lovullab turadigan bir kimsa. Dalva-dalva kiyimlarini shamol yulqilaydi, yaqinlashsa qushlaru hasharotlar hurkib nari qochishadi"*<sup>47</sup>.

Mazkur parchada, Xoin tili bilan Diloromga, so'ng esa muallif tili bilan Murtaga ta'rif berilgan.

Retrospeksiya personajlar o'tmishini jonlantirish maqsadida xizmat qilibgina qolmasdan, konflikt chigallashib qolgan, biroq uning mohiyati qahramonlarga ham, tomoshabinlarga ham aniq ma'lum bo'lmagan hollarda qo'llanadigan bo'lib qoldi. Hozirgi globallashuv davrida inson atrofida bo'layotgan jarayonlarga befarq emas. Yer yuzida kechayotgan voqea-hodisalar, avvalo, uning qalbida aks-sado bermoqda. Shunday sharoitda insonning o'y-xayollari, taassurotlari va tasavvurlariga murojaat qilish faqat shaxsning ichki olamini ochish imkonini kengaytirib qolmasdan, ular orqali tashqi olam tasvirini, undagi ijtimoiy siljishlarni tahlil qilish imkonini ham beradi. Darhaqiqat, adib ushbu asarda azal va abad o'rtasidagi mangu kurash, omonsiz jang, inson o'zagi bo'lgan muhabbat, ma'naviyat, odamiylik kabi tushunchalarni tahlil qilishni maqsad qiladi. Unda qo'llanilgan tafsilotlar va ishoralar negizida mustaqil fikrlashga urinayotgan, o'zini anglashga, ichki ehtiyojni hayot mazmuniga aylantirishga intilayotgan inson obrazini ko'ramiz. Qahramonning ma'naviy-axloqiy qiyofasi ramziy vositalar asosida tasvirlanadi. Shuning uchun hayotning murakkab tomonlari bilan bir qatorda shaxs kechinmalaridagi fikrlar orqali jamiyatga uning asosi bo'lgan insonga teranroq nazar solinadi. Syujet qurishning retrospektiv usuli muallif hikoyasi, xotiralari, hikmatlar, atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga munosabati, assotsiatsiyasi singari turli-tuman shakl va ko'rinishlarda, rang-barang holda namoyon bo'lmoqda. Bularning barchasi roman qiyofasining muttasil takomillashib borayotganligini, romanbop tafakkur tarzining rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Bunday takomillashuv esa borliqni yanada chuqurroq ochish, roman qahramoni bo'lgan insonning ichki dunyosini tadqiq qilish hamda uning falsafiy mazmunini to'laroq idrok etish imkonini beradi.

## XULOSA

1. Badiiy asar syujeti voqealar, to'qnashuvlar, munosabatlar, xarakterlar, muallif g'oyasi va mafkurasini aks ettiruvchi, asar badiiyligini ta'minlovchi asosdir. Retrospeksiya qahramonning ichki dunyosini yoritish, asar personajlarining o'y-xayollari, iztirob va kechinmalarini talqin etish vositasi bo'lib, ularning o'z kechinmalarini tahlil qilishlari voqelik va qahramon qiyofasining hayotiy tasviri hamda ta'sirchan ifodasini yuzaga keltiradi.

---

<sup>47</sup> Исажон Султон. Озод // Шарқ юлдузи журналы, 2011. 4 сон, – Б.70.

2. Badiiy asardagi retrospeksiya nuqtalari tufayli bir qarashda syujet funksiyalaridan mahrum, ahamiyatsiz tafsilotlarni, ko‘pincha qayta ko‘rib chiqish – keyingi voqealar, qahramonlar va kitobxon uchun ham “yangilik va muhim” bo‘lishini ta‘minlaydi. Bu esa orqaga nazar tashlashni talab etadi, chunki voqealar bog‘liqligi aniq retrospektiv idrok bilan namoyon bo‘ladi. Retrospeksiya – kitobxonni asar voqealarini diqqat bilan o‘qishga va qayta ko‘rib chiqishga undaydi, butun yaxlit mazmunga bog‘liqlikni ta‘minlaydi. Retrospeksiya o‘tmish va hozir o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prikdir. Retrospeksiya tufayli o‘quvchi ilgari olingan ma‘lumotlarni qayta tiklab, uni qayta ko‘rib chiqish va oxir-oqibat muallif niyatini anglab yetishi mumkin. Avvaliga tushunarsiz, ikkilamchi bo‘lib tuyulgan ma‘lumot takroriy eslatib o‘tilganligi tufayli aniqlashadi va ma‘lum ahamiyat kasb etadi.

3. Retrospeksiyaning turli shakllarda kuzatilishi, retrospektiv qismning tuzilishi (sodda va murakkab)ga, syujet dinamikasiga bo‘lgan ta‘sir (syujet rivojini sekinlashtiruvchi (retordatsiya) va syujet voqealarini rivojlantiruvchi)ga, shakli (hikoyat, ibrat, bashorat)ga, xotira (yodiga tushdi, esladi), havola, rivoyat, biografik, hikmat, esdalik va h.k.) hamda qahramon xatti-harakatlarining izohlanish zaruriyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Retrospeksiya asosli va haqqoniy ma‘lumotlarga tayangan holda hosil bo‘ladi. Yozuvchi ilgari berilgan dalillarga murojaat etadi va ular voqealarning mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Kitobxonning e‘tiborini dalillarga qaratgan holda muhim voqealarni yodda saqlashga majbur qiladi. Retrospeksiyada matnning ayrim qismlariga urg‘u beriladi, u asarning badiiy-estetik ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

4. Abdulla Qodiriy ijodida samarali qo‘llanilgan shakl “biografik retrospeksiya”dir. Asardagi voqealarning mazmunini ochish, obrazlarning asosiy voqealargacha bo‘lgan o‘tmishi, uning evolutsiyasi va xarakteridagi avvaliga tushunarsiz bo‘lgan jihatlarini ochib berish, izohlash uchun tasvirlanadi. Bunday shaklda qo‘llanilgan retrospektiv qism bir vaqtning o‘zida qahramonlarni anglash va keyingi voqealarda ularni xatti-harakatini tushunish imkoniyatini berish bilan birga syujet voqealarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Badiiy asar tarkibida kelgan retrospektiv qism – rivoya usuli (rivoya kim tomonidan amalga oshirilishiga ko‘ra), undagi voqealar (rivoya qanday shaklda berilishiga ko‘ra), bu voqealarning qanday vaziyatda qo‘llanilishi (rivoyada berilgan voqealarni sodir bo‘lgan paytiga ko‘ra), asar qahramonining holati, xatti-harakati va xarakteri kabilarni izohlash zarurlari, muallif va qahramon tasviri, retrospektiv rivoyat, retrospektiv epigraf, asosiy syujetga nisbatan tormozlovchi va rivojlantiruvchi vazifani bajaradi.

5. O.Yoqubov ijodida retrospektiv syujetning retrospektiv hikoyat, retrospektiv xotira, retrospektiv esdaliklar, retrospektiv tush (bashorat) kabi ko‘rinishlaridan keng foydalanilgan. Natijada qahramonning ruhiy holati, xatti-harakatlari murakkab psixologik jarayonlar asosida ochib berilishiga erishilgan. “Ko‘hna dunyo” romanida hikoyachi-muallif retrospektiv epizodni bayon etish davomida har bir narsani, voqea-hodisalarni va personajlarni kuzatadi, tahlil qiladi va buni kitobxonga bayon qiladi. Tasvirlanayotgan voqeaga o‘z munosabatini bildiradi, lekin uning munosabati bilan personaj munosabati bir-biridan farqlanadi. Natijada



personajlarning portretini tasvirlashda hikoyachi-muallif bayoni hosil bo‘ladi va asar qurilishida yetakchilik qiladi.

6. Xurshid Do‘stmuhammadning “Bozor” romanida retrospektiv rivoyat shaklida qo‘llanilgan retrospektiv qism tasvirlanayotgan hodisalar va g‘oyalar ta’sirchanligini oshirish, dramatismni kuchaytirish, insonning hayotiy muammolarini badiiy tahlildan o‘tkazish uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi. Asarda syujetning asosiy ikkita chizig‘i mavjud bo‘lib, ular bozor va sevgi-muhabbatdir. Yozuvchi syujetning shu ikki chizig‘i rivoji davomida inson va bozor, inson va muhabbat, inson va ma’rifat, inson va mehr-oqibat kabi davr muammolarini yoritadi. “Bozor” romani shunchaki xronologik voqealar bayoni yoki ketma-ketligi bo‘lib qolmay, unda assotsiatsiyalar, ichki po‘rtanalar, kolliziyalarga boy, asosiy voqealar qahramonlarning ongida kechadi, voqealar ichki harakat dinamikasiga asoslanadi. Retrospeksiya romanning badiiy zamon tizimida muallifning g‘oyaviy-badiiy konsepsiyasiga to‘liq xizmat qiladi, turli badiiy-estetik funksiyalarni bajaradi, mazmunan xilma-xil hamda tarkiban murakkab to‘qimalarni yuzaga keltiradi.

7. Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanida murakkab retrospektiv qismlar muhim ahamiyat kasb etib, qahramonlar o‘tmishini, xatti-harakatini izohlaydi, tahlil etadi, qahramonlarni turli davriy pog‘onalarda tahlil etadi. Murakkab retrospeksiya o‘z ichida mazmunan: retrospeksiya ichra retrospeksiya, retrospeksiyaning ichki retrospeksiylari ichra retrospeksiya iborat bo‘lib, ular retrospektiv qismda tasvirlangan voqealarning sodir bo‘lish o‘rniga ko‘ra: yaqin o‘tmish va uzoq o‘tmishga murojaat shaklida uchraydi. “Bozor”dagi retrospektiv monologlar an’anaviy asarlardagi monologlardan farqlanib, ko‘proq voqelikning o‘z ong prizmasidan o‘tkazilgan hamda o‘sha paytdagi ruhiy xayolot qayta jonlantiriladi. “Muvozanat” romanidagi murakkab retrospektiv qism sodir bo‘lish vaqtiga ko‘ra: o‘tmish + uzoq o‘tmish + yaqin o‘tmish + o‘tmishga murojaat ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Asar rivoyaning kim tomonidan amalga oshirilishiga ko‘ra muallif retrospeksiya shaklida bo‘lib, bu personajning ichki dunyosini anglashda muhim o‘rin tutadi.

8. Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanida voqealar turli davriy pog‘onalardan retrospeksiya vositasida yig‘ilib asar bosh g‘oyasini ochishga xizmat qilgan. Romanda retrospektiv qismning muallif kelajagiga, fojiviy qismatiga ishora qilish retrospeksiyaning shaklan retrospektiv bashorat, mazmunan fojiviy retrospeksiya, rivoyaning kim tomonidan amalga oshirilishiga ko‘ra hikoyachi-personaj retrospeksiya singari shakllari qo‘llanilgan. Retrospektiv qism tarkibida retrospektiv havola va retrospektiv xotira shaklli qo‘llanilishi tasvirda voqelikning bir zamondan ikkinchi zamonga birdan o‘tib qolishiga qulaylik yaratib, talqin ko‘lamini kengaytirgan.

9. Isajon Sultonning “Ozod” romanida retrospeksiya hikoyat, rivoyat va hikmat orqali qo‘llanilib, turli hikoyalar tarkibida yagona mazmun uchun xizmat qilishida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini bajaradi. Asar ramziy ma’nolarga yo‘g‘rilgan o‘zbek postmodernizm romanining tipik misoli bo‘lib, mavzu va g‘oya, syujet va kompozitsion qurilishi jihatdan yaxlitlik kasb etgani bilan ajralib turadi. Yozuvchi ushbu asarda umrning mohiyatini anglashga, o‘zini tanishga intilgan inson

qiyofasini syujet qurilishining retrospektiv usuli muallif hikoyasi, xotira va hikmatlar, assotsiativ mushohada va munosabatlar ko‘rinishida aks ettiradi.

10. Zamonaviy romanlarda retrospektiv qismlar tarixiy romanlardan farqli ravishda shunchaki tarixiy faktlarni berish bilan cheklanmay, voqea-hodisalarni psixologik tahlil qilish, tafakkur qilish, qahramon qismatining eng murakkab, chigal, hal qiluvchi nuqtalarini his etishga imkon beradi. Zamonaviy romanlarda epik rivoyaning turli shakllari ba‘zan birgina asarning o‘zida bir necha xil rivoya tarzi shaklida bir-biriga payvandlanadi, voqelik turli o‘lcham va yo‘nalishlarda tasvirlanadi va qulay usul bilan oson talqin etiladi. Retrospeksiya roman imkoniyatlarini kengaytirib, uning zamon va makondagi sezilar-sezilmas tebranishlarini ham nozik ilg‘ab aks ettiradigan seysmograf bo‘lib borayotgani, romanbop tafakkurning takomillashayotganidan nishonadir. Roman janri taraqqiyotidagi bunday jadal o‘zgarishlar kitobxonlar saviyasi va intellektual madaniyati taraqqiyotiga ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FIL.05.02 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ФЕРГАНСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ГУЛОМОВ ДОНИЁРБЕК ДИЛШОДЖОН УГЛИ**

**РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ ТИП СЮЖЕТА В УЗБЕКСКИХ  
РОМАНАХ И ЕГО ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ**

**10.00.02 – Узбекская литература**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
**диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ наукам**

**Фергана – 2024**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована под номером B2022.2.PhD/Fil2431 Высшей аттестационной комиссией Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена на кафедре литературоведения Ферганского государственного университета.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) помещен на веб-странице Ферганского государственного университета [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz) информационно-образовательный портал "ZiyoNET" [www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель:

Рахимов Закир Ашматович  
доктор филологических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Таджибаева Мукаддас Абдурахимовна  
доктор филологических наук, профессор

Якубов Исламжон Ахмеджанович  
доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация:

Наманганский государственный университет


Защита диссертации состоится 26 07 2024 года в 11<sup>00</sup> часов на заседании научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 по присуждению ученых степеней при Ферганском государственном университете (Адрес: 100151, г. Фергана, ул. Б.Маргинони, дом 105. Тел: (99873) 244-66-02; факс: (99873) 244-44-01; электронная почта: [info@fdu.uz](mailto:info@fdu.uz)).


С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована под номером 358). Адрес: 100151, г. Фергана, ул. Мураббийлар, дом 19. Тел.: (99873) 244-71-28.


Автореферат диссертации разослан 6 07 2024 года.

(Реестр протокола рассылки № 16 от 6 07 2024 года).



  
С.М. Муминов  
Председатель научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
доктор филологических наук, профессор

  
М.Т. Закиров  
Член секретарь научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
кандидат филологических наук, профессор

  
З.Б. Кобитова  
Председатель Научного семинара при Научном  
совете по присуждению ученых степеней,  
доктор филологических наук, профессор

## **Введение (аннотация диссертации доктора философии по филологическим наукам (PhD))**

**Актуальность и значимость темы диссертации.** В мировом литературоведении ретроспекция трактуется как новый способ построения сюжета, приводящий в движение события произведения, описывающий героев, отражающий поведение, характер, мировоззрение автора, степень его восприятия мира. В действительности, глубокое творческое освоение ретроспективы, организующей структуру и сюжет произведения, обеспечивающей восприятие художественной действительности во всей ее целостности, требует своеобразного подхода к пониманию эстетической природы произведения, то есть в исследовании узбекских романов большое практическое значение приобретает демонстрация того, что ретроспекция занимает важное место в построении сюжета и охватывает все элементы художественного произведения.

В последующем развитии мирового литературоведения ретроспекция рассматривалась как одно из поэтических средств отражения бытия и как литературное явление, основанное на творческой концепции писателя и идейном замысле произведения, на раскрытии сюжета, композиционном построении, восприятии картины реальной действительности. Ретроспекция обеспечивает возможность целостного восприятия картины литературного мира, созданной автором как объектом и субъектом изображения произведения. Именно поэтому в исторических романах художественно-эпизированные исторические факты, события, жизни великих личностей – сложные жизненные пути в хронологии далекого или недавнего прошлого, изложение важного фрагмента мозаики на основе ретроспективы, индивидуальности на примере творчества создателей той или иной эпохи или отдельного писателя и анализ в сравнительно-типологическом обобщении являются научно-теоретическими вопросами, необходимыми для изучения в области литературоведения.

В нашей стране в последние годы отношение к художественному произведению и читательству, к личности творца стало одним из основных вопросов литературного процесса. Собственно говоря, сюжет и композиция художественного произведения является основным компонентом в котором проявляется художественность и вереница образов. В этом смысле картина проблем эпохи, человеческих судеб обогащает мировоззрение писателя, побуждая его всем сердцем прочувствовать смысл жизни. Ведь “Сегодня Узбекистан вступает в новый, высокий этап своего развития. Мы поставили перед собой важнейшую и первоочередную задачу – достижение национального возрождения – национального подъема. Мы прекрасно понимаем, что эта великая цель может быть достигнута только путем согласованной жизни с людьми со всего мира, построения открытого демократического общества, более широкого внедрения в нашу жизнь чувства уважения к национальным и общечеловеческим ценностям. С этой точки зрения, изучение и популяризация узбекской классической и современной

литературы на международном уровне, анализ этой многогранной темы в тесной связи с наиболее важными процессами, происходящими сегодня в мировом литературном пространстве, вынесение необходимых научно-практических выводов, определение наших предстоящих задач, думаю, имеет большое значение”<sup>48</sup>, наблюдаются также большие качественные изменения в литературоведении. Поэтому одной из актуальных задач сегодняшнего дня считается сосредоточение внимания на вопросе согласованности образов, соразмерности характера и психики, анализе образа художественного героя в нашем современном романе.

Указы Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года УП-4947 “О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан”, от 28 января 2022 года УП-60 “О новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы”, от 21 октября 2019 года УП-5850 “О мерах по коренному повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного”, РП-2909 от 20 апреля 2017 года “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования”, от 13 сентября 2017 года РП-3271 “О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению и продвижению культуры чтения и чтения”, от 19 октября 2020 года РП-4865 “О праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои” и данное диссертационное исследование служит в определенной степени реализацией задач, определенных в постановлениях и других нормативно-правовых документах, связанных с данной деятельностью.

**Актуальность исследования по приоритетным направлениям развития науки и техники республики.** Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением науки и техники Республики I. “Социальное, правовое, экономическое, культурное, духовно-образовательное развитие информационного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики”.

**Степень изученности проблемы.** Научно-теоретические проблемы ретроспективного сюжета в мировом литературоведении освещаются в исследованиях европейских (Х.Мейергоф, А.Джеймс, В.Хеффернан, А.Родригес, М.Вукановичанд, Л.Грмуса, Н.Бемонг, Р.Борхарт, Ж.Куллер, М.Акинс)<sup>49</sup>, русских (М.Бахтин, Н.Гай, Д.Лихачев, Б.Мейлах, Е.Мелетинский, З.Тураева, В.Хализев, Н.Шутая, Л.Н.Федорова, Н.В.Брускова,

---

